



## 1-4 SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Usmonova Muazzamxon Obokulovna

Andijon viloyati Andijon tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7527920>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> January 2023

Accepted: 11<sup>th</sup> January 2023

Online: 12<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

Zakovat, geometrik shakllar, matematika, metodika, zapusk texnologiyasi, aloqa, kreativ fikrlash.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarga matematik ifodalarni oson va tushunarli o'zlashtirishlari uchun bugungu kundagi zamonaviy metodlar keltirib o'tilgan va ular haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.*

Bizga ma'lumki, boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishi hamda mantiqiy fikrlashini oshirishga hizmat qiluvchi matematika fani hisoblanadi.

Shu sababdan ham, boshlang'ich matematika kursi bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan esa, zaruriy metodologik tasavvurlarini va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'limga ko'plab e'tibor berilmoqda. Rivojlangan davlatlarning o'qitish tizimi va davlat ta'lim standartlari asosida yangilangan darsliklar bolalarning yanada oson o'zlashtirishi va tushunishlariga yordam bermoqda.

**Matematika** so'zi grekcha "**mathema**" so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi "**fanlarni bilish**" demakdir. Matematika fanining o'rganadigan obyekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar va tushunchalar tizimini esa, ma'lum bir usullar va metodlar yordamida o'quvchilarga yetkazib beriladi.

Shu o'rinda Zamonaviy boshlang'ich ta'lim va zamonaviy metodlar nima? degan savol paydo bo'lishi tabiiy.

**Metodika** grekcha so'zdan olingan bo'lib, "**metod**" degani "**yo'l**" ma'noni anglatadi. Bugungi kunda zamonaviy metodlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bir nechtasini misol keltirishimiz mumkin.

**Birinchi zamonaviy metodimiz - "Shakllarni yodda saqla" metodikasi bo'lib**, ushbu metodika orqali o'quvchilarni ko'ruv (visual) xotirasini rivojlantirish hamda turli rasmlar orqali matematik shakllarni esalab qolishini mustahkamlash mumkin. Ushbu metodika materiali sifatida geometrik shakllar chizilgan rasmdan foydalaniladi. Rasmi shakllar o'quvchilarga tarqatilib, 20-30 soniya mobaynida diqqat bilan qarash talab etiladi.



So'ngra, o'quvchilar bilan savol javoblar o'tkaziladi. Bu metod dars davomida o'quvchilar fokusini bir joyga jamlashga yordam beradi.

**Ikkinchi zamonaviy metodimiz- "Zakovat " metodi bo'lib,** dars jarayonini qiziqarli o'tishga yordam beradi. O'quv xonasidagi stullarni doiradan iborat qilib joylashtiriladi, birinchi doira shaklidagi stullar ichki aylanasiga , ikkinchi doira shaklidagi stullar esa tashqarisiga qarab joylashtiriladi. Bu joylashuv o'quvchilarga yanada zavqli dars bo'lishiga yordam beradi. Sinf o'quvchilarini ikki guruhga ajratib olinadi va stullarga joylashtiriladi. Matematik misollar ketma-ketligida savollar o'rtaga tashlanadi va 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Savolning javobini o'zaro kelishilgan holda taqdim etishadi. Bu metod yordamida hamkorlikda ishlashni ham o'rganib borishadilar.

**Uchinchi zamonaviy metodimiz - "Zapusk texnologiyasi" bo'lib,** bu metod Buyuk Britaniyaning o'qitish texnologiyalari orasida eng samaralisi va mashxuri hisoblanadi. Ushbu metodda dars boshlanishidan avval o'quvchilarga mavzuga doir matematik mantiqiy bo'lgan jumboqli savol beriladi, albatta bu barcha uchun qiziqarli bo'lishi shart. Dars davomida o'quvchilarni doimiy tarzda faol va kreativ yondashishi uchun yordam beradi.

**To'rtinchi zamonaviy metodimiz- "Aloqa metodi " bo'lib,** ushbu metodning, mohiyati shundaki, har bir davomida darslarda passiv qatnashuvchi o'quvchi tanlab olinib, hafta davomida ushbu o'quvchilarga alohida savollar va kartochkalar tayyorlanib, ular bilan ko'proq e'tibor bilan ishlanadi. Ushbu o'quvchilarda beixtiyor ichki energiya hosil bo'ladi va yaxshi pozitsiya bilan darslarda faol bo'lishni boshlaydi. Ushbu metod orqali o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkoni mavjud bo'ladi.

Hulosa qilib shuni aytish joizki, zamonaviy bilimlar bilan birgalikda tarbiya ham berib borish, har bir o'qituvchining yosh avlodlarni tarbiyalashdek sharafli kasbining asosiy maqsadi hisoblanadi . Negaki, «Yangi O'zbekistonning» farzandlari har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishlari shart va zarurdir.

## References:

1. M.E.Jumayeva , Z. G'.Tadjiyeva "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" . Toshkent 2005.
2. www.ziyo.uz
3. «Kreativ pedagog» online kursi.
4. Google.uz